

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqarib boshlagan

№ 52 (66333)
2001 yil 28 dekabr, juma

Sotuvda erkin narxda

O'lkamizda kumush qish fasli hukmron. Borliqni oqlikka, poklikka burkaydigan bu faslni men sizlarga, oppoq niyatli bolakaylarga o'xshataman...

Garchand qordan darak bo'lmasa-da, yoshu qarining qalbida allaqanday hayajon, intiqlik hukmron. Bu bejiz emas albatta, intizor

Yurtboshimiz tomonidan o'tgan yillarimizning «Oila», «Ayollar», «Sog'lom avlod yili», mazkur yilimizni esa «Onalar va bolalar yili» deb nomlanishida purma'no bor.

«Oila yili»da oilalarimizning

but, bolalarimizning baxtiyor ulg'ayib, chin ma'nodagi INSON bo'lib kamol topishlari uchun har doimgidan ham ko'proq g'amxo'rlik qilindi.

23-Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining eng sevimli

yordam» ko'rik-tanlovi o'tkazildi.

Respublikamizning ko'plab tumanlarida oilaviy shifoxonalar ish beshladi...

Siz, bolajonlarning dardini davolovchi bilimlar bilimdoni bo'lishingiz uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, chet ellarda bilim olib, tajriba orttirib kelayotgan

ASSALOM YANGI YIL, SALOM YAXSHI YIL!

kutayotganimiz yangi - 2002 yilning kirib kelishiga ham sanoqli kunlar qoldi. Hademay yangi asrimizning birinchi yilini ham yakunlaymiz. Shunday kezlarda har bir insonning ko'nglidan: «O'tayotgan umrimning yana bir yilini qanday yashab o'tdim? Nimalarga ulgurdimu qanday rejalarim rejaligicha qolib ketdi?» degan savollar o'tishi tabiiy. Har bir oila davrasida erishilgan yutuqlar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar sarhisob qilinadi...

O'zbekistonimizni kattakon bir ahil oilaga, yurtboshimizni esa ana shu oilaning dono, qat'iyatli boshlig'iga qiyoslagim keladi. Zero, xalqimizning ham, yurtboshimizning ham maqsadu maslagi yagona - tinchlik, farovonlik!

mustahkamligi, to'kisligi, xonadonlarimizning fayzu barakasi, dasturxonlarimizning to'kin-sochinligi haqida ko'proq qayg'urilgan bo'lsa, «Ayollar yili»da onajonlarimiz, opa-singillarimizga hurmatu e'zoz, g'amxo'rliklar bisyor bo'ldi. «Sog'lom avlod yili»da barcha diqqat-e'tibor siz, aziz bolajonlarning puxta bilim olishingiz, hunar o'rganib, salomatligingizni tiklashingizga qaratildi.

«Onalar va bolalar yili» deb nom olgan mazkur yilimiz ham yangiliklarga, yaxshiliklarga boy yil bo'ldi. Birinchi galdan onalar va bolalarimizning salomatliklari haqida qayg'urildi. Qolaversa, onalarimizning baxtli, bag'ri

maskaniga aylantirilgan «Algoritm» bolalar sog'lomlashtirish oromgohida 90 nafar bola ham dam olish, ham salomatligini tiklash imkoniga ega bo'ldi.

Navoiy viloyati, Navoiy tumanidagi markaziy shifoxonaga AQSH ning OUP loyihasi bo'yicha «Ona va bolaga do'stona munosabatda bo'lish» klinikasi sertifikatini topshirildi.

Germaniyaning fuqarolarni muhofaza qilish departamenti tomonidan Qoraqalpog'iston respublikasi uchun 5,5 mln Xorazm viloyati uchun 1 mln. nemis markasi miqdorida mablag' ajratilib, tibbiy asbob-uskunalar yetkazib berildi. «Ekosan» xalqaro jamg'armasi va respublika xotin-qizlar qo'mitasi hamkorligida «Yosh onalarga

tengdoshlaringiz haqida gapirmasak ham bo'ladi. Yil davomida respublikamizda 4 ta akadem-litsey, 48 ta kasb-hunar kolleji qurilib, foydalanishga topshirildi. Yana 30 ga yaqini ishga tushish arafasida...

Eh-he, bunday xayrli ishlarni sanayversak, adog'iga yetib bo'lmaydi. Yangi - 2002 yilimizning yurtboshimiz tomonidan ana shu zafarli, yutuqlarga boy bo'lgan yillarimiz davomi sifatida «Qariyalarni qadrlash yili» deb e'lon qilinganini zo'r quvonch bilan kutib oldik. «Qarisi bor uyning parisi bo'ladi» deganlaridek, keksalarimizni qanchalik qadrlasak, e'zozlasak, ularning serma'no o'g'itlariga quloq tutsak, kam bo'lmaymiz. Yurtimizga tinchlik, farzandlariga omonlik, turmushimizga farovonlik tilab, qo'llarini duoga ochayotgan nuroniy otaxonu onaxonlarimizning tilaklari ijobat bo'lsin, iloyo!

Yangi yilimiz yaxshiliklarga boy yil bo'lsin!

Feruza JALILOVA.


ARCHI ANON

Yangi yil kuni dadam,
Archa keltirdi bizga.
O'rmondan bo'ldi shu dam,
Nur to'lib uymizga.

Ertalab tursak archa,
Bo'lib olibdi farang.
Shoxlarida yuzlarcha,
O'yinchoqlar rang-barang.

Osmondan tushib yulduz,
Uchida pirliraydi.
O'rmondan kelgan Qorqiz,
O'ynagani chorlaydi.

Bo'ri, quyonjon, tulki,
Boshlab yubordi o'yin.
Yangi yilgi zavq, kulgu,
Davom etsin yil bo'yi!
ZAMIRA.



QISHLOQ QIZIDAN MAKTUB

Qo'limga qalam olib necha bor maktub yo'llamoqchi bo'lganman. Biroq, dugonalarim xatimning Toshkentgacha yetib borishiga shubha qilishar va meni maqsadimdan qaytarishardi. Bugun esa ularga maslahat ham solmay, maktub jo'natishga jur'at etdim. Chunki sevimli gazetam sahifalarida e'lon qilinayotgan xatlar respublikamizning turli burchaklaridan keladi-ku, to'g'rimi? Ehtimol «baland dorga osilish»dan kimdir cho'chir. Men esa yuqorini ko'zlamochiman. Yozgan she'r va maqolalarim tuman hokimligining «Buvayda ko'zgusi» gazetasida chop etiladi. Mening esa respublika miqyosiga chiqqum bor. Agar birorta to'rtligim chop etilsa, tengdoshlarim oldida yuzim yorug' bo'lardi.

**Shukrona ayt, to'g'ri so'zlar sabriga,
Bu dunyoda noming qolsin to'abad.
Og'ib ketma ag'yorlarning makriga,
Sen bir umr yonib yasha, Haqiqat!**

**Bashoratxon OTAJONOVA,
Farg'ona viloyati, Buvayda tumanidagi
1-iqtidorli bolalar maktab-internatining
9-sinf o'quvchisi.**

BAYRAM UKAMGA YOQDI

Maktabimizda, keyin sinfimizda katta archa bayramini o'tkazdik. Unga ukam Yosinboyni ham olib bordim. Qiziqarli tomosha-yu o'yinlar, hangoma-yu kulgular, o'rmondan kelgan mehmonlar ukamda katta taassurot qoldirdi. O'rtoqlarim esa kichkintoy oldida girdi kapalak bo'ldilar. Ayniqsa, Qorboboga qarab:

**Qorbobomiz oppoq,
Peshonasi yalpoq,
Hassasi uzunchoq,
Ko'proq bering o'yinchoq,** degan she'rini qayta-qayta aytirishdi.

**Mashhura MAMITALIYEVA,
Andijon viloyati, Shahrixon tumanidagi
11-o'rta maktabning 6-sinf o'quvchisi.**



BAXTIMIZGA OMON BO'LING

Qish faslining birinchi oyi ham o'z nihoyasiga yetmoqda. Biz intiqib kutgan Yangi yil bayrami ham yaqinlashib kelayapti.

Kelayotgan yangi yilni yurtboshimiz I.A.Karimov «Qariyalarni qadrlash yili» deb e'lon qildilar. Bu bejiz emas albatta.

Mustaqil diyorumizning gullab yashnashida mana shu aziz insonlarning xizmatlari beqiyosdir.

Keksalarni hurmat qilish, ularni e'zozlash biz yoshlarning asosiy burchimizdir. Ilohim baxtimizga buva va buvilarimiz sog'-salomat bo'lib, chehralari nurlarga to'lib yurishsin.

**DILNOZABONU,
Toshkent Pedagogika
kollejining 2-maxsus
«D» - guruh
talabasi.**

Qish - biz bolajonlarning eng sevimli faslimiz. Zavqu shavqqa to'lib qorbo'ronlar o'ynaymiz, bayramlar uyushtiramiz. Eh, gupillatib qor ham yog'ib yuborsa edi. G'arch-g'urch qilib qorni bosib

G'AM-ANDUHLAR YANGILANMASIN

yurishlarni sog'indik...

Aynan qishdan boshlanadi yangi soat, yangi kun, yangi oy va yangi yil. Qanday yaxshi, hamma narsa yangilanadi. Hamma narsalar yangilansinu faqat g'am-anduhlar yangilanmasin!

**Oynisa ESHMURODOVA,
Samarqand viloyati, Oqtosh
shahridagi 59 - maktab
o'quvchisi.**

Ikkinchi chorak yakunida ustozimiz, botanika o'qituvchisi Xosiyat Ziyodullayevna bizni tabiat muzeyiga olib bordilar. U yerdagi sher va qoplonlar, baliqlar, burgutu quyonlar bizda katta taassurot qoldirdi.

Ayniqsa, ikki boshli qo'zichoq va buzoqcha, bitta ko'zli qo'zichoq, ikki og'izli

TABIAT MUZEYIDA BO'LGANMISIZ?

qo'yni ko'rganimizda, to'g'risi, biroq cho'chidik.

Muzeydagi yaltiroq toshlar bizning e'tiborimizni tortdi. Toshlar teparoqda joylashgani uchunmi, sinfdoshimiz Jasur toshlarni ko'rishga biroq qiynaldi. Shunda men uni ko'tarib toshlarni ko'rsatdim.

Men va sinfdoshlarim - Javlon, Qahramon, Zamira, Nilufar, Sirojiddin, Sherzod, Go'zal, Adolat kabilar tabiat muzeyidan katta taassurotlar olib qaytdik.

Tengdoshlarim ham tabiat muzeyiga borsalar, albatta bilimlariga bilim qo'shilib qaytadi.

**Iskandar ODILOV,
Hamza tumanidagi
206- maktabning
6- sinf
o'quvchisi.**

Juda to'g'ri gap. Buvim va buvajonlarim davlati soyasida ko'p yillar yurish nasib etsin barchamizga. Ularning ko'rsatgan yo'l-yo'riqlari, nasihat maslahatlari mening uy ishlarimda, o'qishlarimda doimo hamroh bo'ladi. Buvijonim Mahbuba ayaning o'gitlaridan bir chimdimini siz ham eshitib

ko'ring - a:

«Ozim, hovlini supurganingda darvoza oldidan ichkariga qarab supurgin, uydagi baraka tashqariga chiqib ketmasin. Ko'chani esa darvozadan u tarafga qarab supurgin, tashqaridagi falokatlar uyga yo'lamasin. Ukangni qara, esnamoqchimi? Hoy, Ixtiyorjon, esnaganingda chap qo'l kaftingning teskarisi bilan og'zingni yopgin, xo'pmi?..»

Ana shunaqa, buvijonim bilgan narsalarni parilar ham bilishmaydi. Axir sakkiz nafar bolani voyaga yetkazib, ularni oliy ma'lumotli, yaxshi oila tayanchi qilib tarbiyalashning o'zi bo'ladimi? Hozirda buvajonim Murod ota Abduazimov

bilan farzandlarining rohatini ko'rib, qarilik gashini surib o'tiribdilar. Buvim ikkinchi jahon urushi qatnashchisilar. O'sha vaqtdagi yaralangan oyoqlari hozir xuruj qilyapti. Birinchi darajali nogiron buvajonim yurak xastaligiga

duchor bo'lib, o'ng qo'l va oyoqlari ishlamay qolgan.

Buvijonim buvamlarning suyanchlari.

Yana, uyimizning to'ridan joy olgan dadamning dadalari Mahmudxo'ja dada Mahsudov haqida ham gapirmoqchiman. Ular Turg'un Mirzayev nomidagi jamoa xo'jaligida 50 yil haydovchilik qilganlar. Hozir nafaqadalar. Bizlarni har tongda oq fотиha bilan ishga, o'qishga kuzatadilar. «Oltin olma, duo ol» degan maqollarining mag'zini o'ngidan kelayotgan ishlarimiz misolida «chaqapman».

**Gulnoza MAHSUDOVA,
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi
25-maktabning
8-sinf o'quvchisi.**

QARI BILGANMI PARI BILMAS

Yangi yilimiz eshik qoqayotgan ayni damlarda barchamizning quvonchimiz cheksiz, ayniqsa, siz aziz bolajonlarning. Yangi yil tantanalari, ertak qahramonlari ijrosidagi qiziqarli tomoshalar, eng muhimi,

Qorboboning sirli sovg'asi kutyapti sizlarni. Bayramlarga qishki ta'til kunlarining ulanib ketishini aytmaymizmi?! Ota-onalaringiz hech erinmay sizlarni tomoshalarga yetaklab borishadi. Ta'til kunlaringizning maroqli, sermazmun o'tishi uchun esa kattalarimiz astoydil harakat qilishadi. Jumladan, bizning «Tomosha»

bolalar ijodiy studiyamiz ham yangi, qiziqarli

konsert dasturi hozirlayapti. 29-30 dekabr kunlari Milliy Akademik Drama teatrimizda bo'lib o'tadigan «Prezident archasi» tomoshalarida ishtirok etib, keyin

Navoiy, Qarshi kabi viloyatu tumanlarda bo'lib, ko'ngli kemptik tengdoshlariga quvonch ulashishadi, yurtboshimizning sovg'alarini o'z egalari topshirishadi.

Qisqasi, qishki ta'til kunlarini tengdoshlari davrasida o'tkazishadi.


Fursatdan foydalanib, o'zim hamda studiyamiz a'zolari nomidan respublikamizdagi barcha bolalarni Yangi yil ayyomlari bilan samimiy qutlayman. Ularga sihat-salomatlik, o'qishlarida muvaffaqiyatlar tilayman.

Chehrangizdan tabassum, tilingizdan qo'shiq arimasin, aziz bolajonlar!

Nodira QURBONOVA,
«Tomosha» bolalar ijodiy studiyasining badiiy rahbari.

republikamiz bo'ylab safarga o'tlanamiz. Guruhimiz a'zolari Yangiyo'l, Guliston, Jizzax, Buxoro,

TOMOSHA'NING BAYRAM SOVG'ASI



MO'JIZAVIY KO'ZGU

Ma'lumki, yangi yil bahona barcha teatrlarda «Archa bayramlari» o'tkaziladi. Bolajonlar archa atrofida raqsga tushadilar, she'r va qo'shiq aytadilar, ertak qahramonlariga duch keladilar. Shu bilan birga spektakllar tomosha qiladilar.

Xo'sh, teatr o'zi nima? U inson hayotida qanday o'rin tutadi. Ushbu savolimizga shoir va dramaturg Haydar Muhammaddan javob olishga harakat qildik:

- Avvalo aziz nabiralirimni kirib kelayotgan yangi yil bilan qutlayman. Ularga sog'liq, omonlik tilayman. Hamisha o'qishlari a'lo bo'lsin.

Teatr- bu ma'naviyat ko'zgu. Ko'zgu bo'lganda ham mo'jizaviy ko'zgu. Spektakllarni tomosha qilgan insonning tafakkuri yanada kengayadi, ma'naviyati boyiydi. Chunki teatrdan jonli muloqot bor. Aktyor bilan tomoshabinning nafasiga tegib, ko'zi- ko'ziga tushib turadi.

Sahna orqali ajdodlarimiz, vatandoshlarimiz siymosi ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga milliy ertaklar namoyish etiladi. Tomoshabin qahramonlarning harakatlarini kuzatar ekan, ularga o'z munosabatini bildirib boradi. Bu borada ayniqsa, milliy ertaklar asosida sahnalashtirilgan spektakllar juda muhim. Nasib bo'lsa, bolajonlar uchun ertakli kitob yaratish niyatidaman.

O'zbek Milliy Akademik Drama teatrida Haydar Muhammad asari asosida sahnalashtirilgan «Sehrli tanbur» spektakli 1 yanvardan 10 yanvargacha har kuni soat 10.00, 12.00, 14.00, 16.00 da namoyish etiladi.

Muqimiy nomli musiqali drama teatrida Gulchehra Fayziyeva qalamiga mansub «Bilag'onning yo'li charog'on» deb nomlangan musiqali ertak spektakl 31 dekabr hamda 1 yanvardan tashqari 26 dekabr dan 10 yanvargacha namoyish etiladi. Spektakl har kuni soat 10.00, 12.00, 14.00 da boshlanadi.

«Jar» sport majmuasida estrada va sirk tomoshalari avjida. O'rgatilgan hayvonlar va mashhur akrobatlar, sportchilar va masxarabozlar ijrosidagi tomosha 25 dekabr dan 10 yanvargacha soat 14.30 va 16.30 da bo'ladi.

«Imperial» klubida bastakor Vagif Zokirov va onasi Yelena Zokirova boshchilidagi «Sezam» bolalar studiyasi «Sezam ertaklari» myuziklini 25 dekabr dan 10 yanvargacha roppa rosa soat 10.00, 12.00, 14.00, 16.00 da namoyish etishadi. Quvnoq bolalar qo'shiqlaridan siz ham bahramand bo'ling.

Siz, aziz bolajonlarga olam-olam quvonch bag'ishlovchi «Prezident archasi» bu yil o'ninchi bor sizni o'z atrofiga jamlaydi. Bu tadbir faqat

Sevimli shoirimiz Anvar OBIDJON bu bayramning yanada fayzli o'tishiga o'z ssenariy va qo'shiqlari bilan hissa qo'shib kelmoqda.

BAYRAM QUVNOQ O'TSIN DEB...

poytaxtimizdagina emas, viloyatlarimizda ham katta shodu xurramlik bilan o'tkaziladi.

Quyida o'sha qo'shiqlardan ayrimlarini e'tiboringizga havola etmoqdamiz.



PREZIDENT ARCHASI

Prezident archasi - Istiqlol tumorchasi. Quvonchlari qaynagan Yuragimiz parchasi.

Davraga bizni to'plab, Birlashtirar har yili. Barchani o'rtoq qilib, Sirlashtirar har yili.

Archamizning bezagi - Sho'x bolalar shodligi. Vatanimiz ko'rki-yu Xalqimiz ozodligi.

Salom, salom yangi yil, Yangi zamon belgisi. Yangi zafar, yangi shon, Yangi hayot elchisi.

QORQIZ QO'SHIG'I

Yo'llarim olmos qor, Ko'ylaklarim olmos qor. Sochlarim ham olmos qor, Tojlarim ham olmos qor.

Oqqina oqqush Oqqizman, Qorbobo qorgan Qorqizman.


Yo'ymang meni sho'r tuzga, O'xshatmanglar yo muzga. Tilim novvot-qaymoqdir, Ko'nglim yumshoq, qaynoqdir.

Oqqina oqqush Oqqizman, Qorbobo qorgan Qorqizman.

MIKKI MAUS QO'SHIG'I

Men sichqoncha Mikki Maus, Och mushukning og'zi hovuz. Yovga ko'pdir menda hillo, Mister do'stga fe'lim tillo... Hello! Vahshiy odat sichqon ovi, Bunday ovga yo'l yo'q - nou! Siz omborga don to'kkan kez, Borsammikan tunda tez-tez... Yes!

Goh mehmonga chorlab turing, Pishloq kabi porlab turing. Quvsangiz, biz - tum-taraqay, Mehmondo'stlik qani? - Ay-yay... Goodbay!



Bundan tashqari Yosh tomoshabinlar teatri va qo'g'irchoq teatrida 1 yanvardan 10 yanvargacha soat 10.00, 12.00, 14.00, 16.00 da «Archa bayrami» tomoshalari bo'lib o'tadi. Respublika davlat Sirkida «Teledo'mboqchalarning yangi sarguzashlari» namoyish etiladi.

Alisher Navoiy nomidagi Katta Akademik teatrida 10 yanvargacha roppa rosa soat 11.00, 13.00, 15.00 da «Yangi yil hangomalari» nomli tomosha bo'ladi. Ta'tilni maroqli o'tkazing, bolalar!

Maktab sahnasi uchun

1-bola:

Assalom, so'zinning kirish qismidan
Assalom, tabiatning nozik jismidan.
Assalom, quyoshdan, oydan assalom,
Assalom 1- «A» snif nomidan.

2-bola:

Salom bergan bolaning o'zi odobli,
Kulib turgan yuzlari go'yo oftobli.
Salom berish - bu eng yaxshi odat,
Salom berganlar bo'ling salomat.

3-bola:

Aziz ota-onalar,
Va qadrdon bolalar.
Bayram, shodlik muborak
Savodxonlik muborak.

4-bola:

Rahmat sizga muallim,
Bizga berdingiz ta'lim.

5-bola:

Bolalar, bizning bayramimizga Amir Temur
bobomiz ham kelmoqdalar.
Ularni kutib olaylik.

Baravariga:

Assalomu alaykum Temur bobo.

6-bola:

Salom buyuk bobojonim,
Xush kelibsiz bayramga.
Salom buyuk sohibqiron,
Dong taratdingiz olamga.

7-bola:

Olti asr o'tsa hamki,
Unutmadi el, jahon.
Siz eng buyuk sarkardasiz,
Manmanlikdan yo'q nishon.

8-bola:

Necha yurtni obod etib,
Xalqni ozod etdingiz.
Adovatni quvib eldan,
Adolatga ytdingiz.

9-bola:

Xalq baxtini o'ylab doim,
Olg'a yurish qildingiz.
O'zbek nomin bayroq qilib,
Yurt qalbiga tikdingiz.

10-bola:

Bugun sizni yod etmishlar,
Butun dunyo xalqlari.
Ruhingizni shod etmishlar,
Ozod yurt bobolari.

Amir Temur:

Rahmat bolalarim. Men qayerga kelib qoldim?

Boshlovchi:

Siz 146-maktabdagi 1- «A» snif
o'quvchilarining «Alifbe bayrami»ga kelib
qoldingiz.

Amir Temur:

Maktab? U qanday joy?

Boshlovchi:

Maktab - bu madrasa desa ham bo'ladi.

1-bola:

Avvallari bolalar,
Madrasada o'qirdi.
Shunda ham puli borlar,
Boyvachchalar o'qirdi.
Hozir esa hamma teng,
Maktabda bilim olar,
Keng, yorug' sinflarda,
Savodini chiqarar.

Amir Temur:

Barakallo, endi tushundim maktab ne ekanini.

Boshlovchi:

Bobojon, endi siz o'tirib bizning bayramimizni
tomosha qiling.
Bu bayram sababkori,
Bilimlar poydevori.
Shirin, ma'noli so'zi,
Qani «Alifbe» o'zi?
Alifbeni chaqirsak,
Baravar qarsak chalsak.

Baravariga:

Alifbejon, kelaqol,
Olqishlaymiz quloq sol.

Alifbe:

Assalomu alaykum,
Aziz ota-onalar.
Va qadrdon bolalar
Savodxonlik muborak.
Bayram, shodlik mubora

Savodxonlik muborak.

Baravariga:

Rahmat senga Alifbe,
Rahmat senga Alifbe.

Alifbe:

Men eng to'ng'ich kitobman,
Alifbeman, oftobman.
Savod chiqarding mendan,
So'rab ko'ray-chi sendan.
Alifboda nechta harf?

Baravariga:

Harflar 29 ta.

Alifbe:

Zehningizga ofarin.

2-bola:

Charaqlagan oftobim
Ko'zga go'yo nur berding.
O'qituvchim hijjalab
Barcha harfni tanitdi.
Bilimimga sen sabab,
O'qiy olaman endi.
«A» dan «CH» gacha sendan
O'qib bo'ldim bilag'on.
Senga dildan tashakkur,
Unutmaymiz hech qachon.

Boshlovchi:

Qani, o'ylang-chi obdon.
Qaysi so'zlar sizga qadrdon?

Baravariga: Ona.**3-bola:**

Ona, qimmatini ta'riflash uchun,
So'zlar xazinasining o'zi yetmaydi.
Hayotimni hadya etaman deymen,
Bu kichik jonimning o'zi yetmaydi.

Boshlovchi:

2001 yil - Onalar va bolalar yili.
Ona ulug', ona aziz
Ona mehr bulog'i.
Farzand unga bolday laziz,
Farzand uning chirog'i.
Onajon qo'shig'i.

Alifbe:

Balli, ey dili oqlar,
Fan bilimiga chanqoqlar.
Minnatdorman sizlardan,
Baxtli o'g'il-qizlardan.
Yana savol, qalaysiz?
Qay tovushlar bilasiz?

4-bola:

Tovushlar unli, undosh,
Biri ko'zu, biri qosh.
Unlilardan 6 harf,
Bari tetik, lo'nda harf.
Undoshlardir qolgani,
Ular ham bo'linadi.

Alifbe:

Nega tunda chiqar oy?
Gullar qaydan olar chiroq?
Qushlar ne deb sayraydi?

Qayga shoshar toshqin soy?
Samoda ham jonoz bormi?
Ko'kda bulut oppoq qormi?
Osmondagi odamlar ham,
Yerni ko'ray deb xumormi?

Qishda qushlar qayga ketar,
Kunlar nega shoshib o'tar?
Ey, bolajon savollarga,
Olam sendan javob kutar.

O'yinchog'ing qo'ygin, to'xta,
Alifboni o'rgan puxta.

Tinish belgi qayda kelar?

Nedir tire, vergul, nuqta?

Eng avvalo shularni bil,

Ilmlarga chanqoqdir dil.

Alifbo-ki, sirli olam,
Charxlanadi unda aql.

Alifboni bilgandan so'ng,

Jumboqlar ham yechiladi.
Bolajonlar qarshingizda
Ko'plab sirlar ochiladi.

Shunda harflar o'zlarini,
Aytib she'riy so'zlarini.
Tanishtirar, bitta-bitta
Ko'rsatib oy yuzlarini.

5-bola:

«A» dir bilsang mening ismim,
Qosh simyog'och misol jismim.
«Arra» so'zin oxirida,
Ham boshida keldim o'zim.

6-bola:

Bilgin bola, bilib olgin,
Gaplarimga quloq solgin.
«Baliq», «bobo» so'zlarida
Men kelaman, tanib qolgin.

7-bola:

«Daftar», «Dala» so'zlaridan
Topchi meni, izlab qani?

8-bola:

Qattiq daraxt nomi Eman
Men esa harf, oddiy «E» man.
Meni eslab qolganlarga,
Xursand bo'lib rahmat deyman.

9-bola:

Falak, foyda, faqat fursat,
So'zlaridan meni ko'rsat.
To'g'ri topsang yasha, deymen,
Endi o'qi, boshla deymen.

10-bola:

Belgilarim o'zimga xos,
Guli, Gulnoz, Gulxon, gilos
Kabi qator so'zlardagi
«G» harf bu menligim rost.

11-bola:

«X» ikkimiz Hasan-Husan,
«H» harfiman bilgandirsan.
Olti harfni bilding hisob,
Shular ichra meni ham top.

12-bola:

«I» deganda meni esla,
O'qib, yozib aqling peshla.
Ishda ildam ilg'or bo'lib,
Yalqovlikni butkul tashla.

13-bola:

Ko'rinishim aslim shu-da,
Ismim esa oddiy «J» da.
Men ham harflar biridirman,
Kerakliman juda-juda.

(Davomi kelgusi sonda).

Xurshida MURODXO'JAYEVA,
146- maktabning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi.

Mana, Yangi yil bayramining bir-biridan qiziq sarguzashtli kunlari eshik qoqmoqda. Ushbu kunda gina, araz, dilxiraliklar va xafagarchiliklar unut bo'ladi.

Hamma-hammaning qalbida yangi yil malikasi yam-yashil va quvnoq archaning turli-tuman, rang-barang o'yinchoqlaridek cheksiz quvnoqlik hamda bayramona kayfiyat hukmron bo'ladi. Oppoqqina beg'ubor qor og'ushida o'tgan Yangi yil bayramining kayfiyati ham o'zgacha-da!

Aynan shu bayramning AQSHcha talqini haqida Alisher Navoiy nomidagi Nafis san'at litseyining ingliz tili o'qituvchisi Akmal Shodmonqulov bizga quyidagilarni gapirib beradilar:

- Bu bayram Kristmas (rojdestvo) deb nomlanib, u qishning 25 dekabr kuni keng nishonlanadi.

Bayram afsonalari turli xalqlarda turlicha. Chunonchi, Skandinaviyada va boshqa Yevropa mamlakatlarida Kristmas ota (Father Christmas) yoki Rohib Nikolas (Saint Nicolas) degan obrazlar mavjud.

Ular tunda uylarga kelib, mitti do'stlari uchun Kristmas sovg'asini tashlab ketadilar. Saint



Nicolas uzun oq soqolli, qizil momiq chakmonli mehribon inson sifatida tasavvur qilinadi. U odamlarga baxt va yaxshilik ulashish uchun yilning eng sovuq oyida tashrif buyuradi.

Yana bir afsonaga ko'ra, Odin Xudosi o'zining uchqur tulporida

Merry Christmas

osmonda uchib, qish kunlarida insonlarga sovg'alar ulashar ekan.

Kristmas ota Amerikaga tulpor aravada keladi va uning ismi Santa Claus nomi bilan o'zgartiriladi.

Amerikaliklar Santa Clausni oq soqolli,

qizil kiyimli, qizil yanoqli mo'ysafid sifatida

gavdalantiradilar. Amerika bolalari Santa Clausning

borligiga va uning shimolda yashashiga ishonadilar.

Bundan tashqari bolalar Santa Claus yaxshi, odobli, a'lochi kichkintoylarga sovg'a ulashadi deb umid qiladilar va yil davomida a'lo baholarga o'qishga intiladilar.

Bu bayramning muhim udumlaridan biri - Kristmas tabriknomalarini jo'natishdir.

Amerikaliklar bu tabriknomalarni jo'natishni dekabrning ilk kunlaridan boshlashadi.


Ular bu bayramni asosan uyda nishonlashadi.

Bayramdan bir kun oldin Cherkovga borib kechki bayram amallarini bajarishadi va Kristmas qo'shiqlarini aytishadi.

Kristmas dasturxonini juda did bilan bezatiladi. Dasturxonni kurka go'shti, mol go'shti, pirog va ko'plab shirinliklarsiz tasavvur etish qiyin. Bayramda shamlar yoqiladi va yaxshi tilaklar tilanadi. Shuning uchun sham va shamdonlar Kristmasning eng yaxshi sovg'alaridir...

Yaxshi kunlarda yaxshi niyatlar qilish - bu yaxshi odat. Yangi yil oqshomida munis onajonimiz, mehribon otajonimiz duolarini olishimizga nima yetsin?!

Alisher Navoiy nomidagi Respublika Nafis san'at litseyining «Suxandon» guruhi o'quvchisi Jamshid UMRZOQOV tayyorladi.



Ne'mat ARSLON ONA VA ARCHA

(Ballada)

Ko'ksilar ko'ksida armonning izi,
Toshlar saltanati urar ohu yoh.
Ro'yoga aylandi Hisorning qizi,
Shakkatning jo'adek yoshlari guvoh.
Boltaning tig'ida yaltiragan nur,
Qaytmadi samoga, yerga to'kildi.
Peshona terini artarkan masrur:
«Mana, tayyor!» dedi yigitcha, kuldi.
Tuproqqa qorildi yam-yashil tuyg'u,
Samoga sacuradi oniy iztirob.
Nogoh yigitchani qamradi qayg'u,
Birdan vujudiga kirdi bir azob.
Oqshom cho'kar edi botmoqdaydi kun,
Nechandir turmasdi yigit o'rnidan.
Kesilgan archaga qarardi mahzun,
Tirqirab oqardi qoni burnidan.
«Bu ne hol?» o'zidan so'rardi savol,
«Bu ne hol?» so'rardi boltaga qarab.
Va yo zo'riqdimmi, deb qilar xayol,
Nido qilar edi bu nihol yo rab?!
Shunda bir shivirni ilg'adi nogoh,
Yerga engashdi-yu archani quchdi.
Archa shivirladi: «Yigit, bo'l ogoh,
Samoda bir yulduz yondi-yu o'chdi.
Mening umrim erur shu oniy shiddat,
Qayg'urma, bo'lar ish-bo'ldi, nachora?»
Boltangni olgin-u makoningga qayt,
Volidang kutadi unda dilpora.
Ona iltijosi jaranglab shunda
Yigit shuurida berdi aks-sado.
Yuragi bir hisni sezganday tunda,
Yelib ortga qaytdi quvganday balo.
Iltijo qilgandi ona bechora:
«Quloq tut volidang zoriga o'g'lim,
Bir hovda olsang bas, archani kesma,
Yomon bir narsani sezmoqda ko'nglim.
Tong otib hovliga qo'yarkan qadam,
Tizzadan madori ketganin bildi.
Ko'rди, qotib turar tumonat odam,
Onajon! deb yigit yerga yiqildi.
Balki bu tasodif besir-sinoat,
Va yoki taqdirang keluvchi qismat.
Har holda archaga tig' urmoq bo'lsang,
Ayyalo onangdan so'ragil ruxsat

Qishloq va shaharlardan kelib ta'lim olayotgan o'quvchilar yangi yilni oila a'zolari bilan kutish maqsadida ta'til bahonai sabab uylariga oshiqadilar. Toshkentdagi Glier nomli Respublika maxsus musiqa maktabining 9-sinf o'quvchilari - ajoyib ovoz sohibi Elyorbek MAMATOV va yosh changchi Sohibjamol QURBONOVALarni ham yo'l taraddudi arafasida suhbatga tortdik.

«Men go'zal diyor - Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, O'zbekiston tumanining Go'sht qishlog'ida tug'ilganman,- deydi Elyorbek,- uch yasharlik chog'imdanoq qo'shiq kuylayman. Qori Niyoziy nomidagi 51-maktabda tahsil olib, turli tanlovlarda ishtirok etdim. 1995 yil viloyat bo'yicha o'tkazilgan «O'zbekiston - vatanim mening» tanlovida menga uchinchi o'rin nasib etdi. Keyin 1996 yil Glierning yakka xonandalik bo'limiga o'qishga kirdim. Maktabimizda barcha sharoitlar muhayyo. Ustozlarim Faina Usatova va jo'rnavoz Olga Prixodkolar mendek shogirdlar uchun bor bilimlari va mehrlarini berishga



tayyorlar. Eng asosiysi - katta tantanalarda ham ishtirok etayotganim men uchun oliy baxt. Axir xalq nazariga tushish oson emas. Istiqolning 8 yillik to'yida - Mustaqillik maydonida «Bu gulshan soz»

qo'shig'im bilan qatnashganimda ota-onam ko'zlari sevinch yoshlariga to'ldi».

«Chang haqida gapirib beraymi?»-dedi Sohibjamol, - torli, zarbli cholg'u chang trapetsiya shaklidagi tovushni kuchaytiruvchi qutidan iborat. Unga 75 tor tortilgan, ular ikki guruhga bo'linib, 18ta tor yo'g'on tovush beruvchi, qolganlari oddiy simlardir. Guruhlar ko'ndalang tirgak bilan shunday ajratilganki, kalta qismi tovushni torlarning uzun qismiga qaraganda kvinta intervalicha baland chiqaradi.

Changning umumiy diapazoni katta oktavaning sol tovushidan boshlab uch yarim oktavani o'z ichiga oladi.

Men ham farg'onalikman. Zahiriddin Muhammad

Bobur nomidagi 20-maktabda o'qib yurgan kezlirimda ustozim Dinara opa



Shamsuddinova rahbarligidagi o'zbek xalq asboblardan chang sinfida tahsil oldim. 1996 yili Respublika miqyosidagi ko'rik tanlovda 2-darajali diplom sohibi bo'ldim. 1998 yilda esa shu maktabga keldim. Ustozlarim Baxtiyor Abdurahmonov va jo'rnavoz Svetlana Anbergenovalardan chang sirlarini o'rganyapman».

Ha, Al-Farobiy aytganlaridek, «Cholg'u musiqa, ashulaga jo'r bo'ladi yoki ovoza taqild qiladi, uni boyitadi hamda ashulachining boshlang'ich musiqasini va uning oralaridagi cholg'u qismini hosil qiladi. Bu esa ashulachiga dam beradi. Ayni vaqtda ular ashulachining ovozi yetmaydigan joylarni bo'rttirib vokal musiqasini boyitadi».

Hilola ABDURAZZOQOVA.



Hamza tumani «O'rta Masjid» mahallasi hamda Hamza tuman Xalq ta'limi bo'limi hamkorligida «Qutlug' bo'lsin, yangi yil» deb nomlangan bayram bo'lib o'tdi.

Mahallaga qarashli «Quruvchilar» saroyi o'rtasiga o'rnatilgan archa atrofida

ta'limi bo'limidagi katta muallim tashkilotchi Mahbuba opa Ruzaliyeva, mahalla oqsoqoli G'ulomjon aka Yarashev, mahalla faollaridan Shahlo opa, Erkin aka, Mamlakatxon opalar ham biz kabi xursand bo'lishdi.

- Vatan ostonadan boshlanadi, deydi

QUTLUG' BOL'SIN, YANGI YIL

kam ta'minlangan, ko'p bolali oila farzandlari taklif qilindi. Shuningdek, mahalladagi 206-, 212- maktab o'quvchilari ham o'zlarining quvnoq she'r va qo'shiqlari bilan ishtirok etdilar.

Bayramga ham, Qorbobo ham, Qorqiz ham taklif qilindi. Qorqiz- 8-sinf o'quvchisi Nargiza Rasulova Yalmog'iz kampirni, Pari qiz va ertak qahramonlarini ham davraga chorladi. Ayniqsa, Yalmog'iz kampirning topishmog'i bayram ishtirokchilarini o'ylantirib qo'ydi.

Bayramda ishtirok etgan tuman Xalq



dono xalqimiz,- deya so'z oldilar «O'rta Masjid» mahalla oqsoqoli G'ulomjon aka Yarashev. - Mahallang tinchxonadoning tinch. Hamma narsa mahalladan boshlanadi. Mahallada ahillik, tinchlik, mehroqibat barqaror bo'lsin.

Har birimizning xonadonimizga yangi yil yaxshiliklar, yangiliklar olib

kelsin.

Alisher ABDULLAJONOV,
Toshkent shahar,
Hamza tumanidagi
206- maktabning
4- sinf o'quvchisi.

Ustoz, muallimsiz qolsa bir zamon, Nodonlikdan qora bo'lardi jahon.

Donishmand bobolarimiz aytganidek, ustoz olamni yoritib turgan nurga, ziyoga o'xshaydi. Muallimlarimiz bizni nodonlik yo'ldan qaytarib, ma'rifat sari yetaklaydilar. Ayniqsa, qo'limizga ilk bora qalam tutqazgan

Ular ijrosidagi «Dadajon» qo'shig'i, «Palov» raqsi hammaga manzur bo'ldi.

- O'quvchilarimning hammasi bilimga chanqoq, harakatchan o'g'il-qizlar,- deydi faxr bilan Zakira opa.- Ayniqsa, Gulira'no va Gulzodalar eng umidli shogirdlarimdan. Kirib kelayotgan yangi yilda hammalariga

ZEHNINGIZGA OFARIN!

birinchi o'qituvchimizga mehrimiz o'zgacha bo'ladi.

Yaqinda Chinoz shahridagi G'.G'ulom nomli 40 - o'rta maktabda bo'lib o'tgan 1-«A» sinf o'quvchilarining «Savodxonlik bayrami» da qatnashib, maktab ostonasiga qo'ygan ilk qadamim, birinchi ustozim haqidagi totli xotiralarimga yana bir bor oshno bo'ldim.

37 nafar o'g'il-qizning sevimli ustoz Zakira opa Ilhomova tashabbusi bilan o'tkazilgan bayram tadbirida o'quvchilar bilimdonu zukkoliklarini namoyish etishdi.



salomatlik, o'qishlarida muvaffaqiyatlar tilab qolaman.

Shu kuni bolajonlar uchun qo'shaloq bayram bo'ldi. «Alifbe» bilan xayrlashib, «O'qish kitobi», «Ona tili»ni qarshi olgan bolajonlarni Qorbobo va Qorqizlar samimiy qutlab, sovg'alar ulashishdi.

Bolajonlarning chiqishlarini zavq bilan tomosha qilarkanman, birlari shifokor, birlari o'qituvchi, yana biri jurnalist, boshqasi huquqshunos kabi kasblarni egallashni orzulayotgan uka

va singillarimning orzulari ijobat bo'lishiga astoydil tilakdosh bo'ldim.

Gulbahor ORTIQXO'JAYEVA,
Toshkent viloyati.

Shu kunlarda sevimli yozuvchimiz Odil Yoqubov o'zining tabarruk 75 yoshini qarshilayapti. Shu munosabat poytaxtimizdagi 84-maktab zalida adibimiz bilan Toshkent shahar Pedagogika Malaka oshirish instituti tinglovchilarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Malaka oshirish institutining til-adabiyot fani bosh uslubchisi Feruza Muhamedova olib borgan uchrashuv savol-javoblar, jonli muloqotlar asosida bo'ldi. Darslikdan joy olgan «Muzqaymoq» hikoyasining mohiyati, yozilish tarixi haqida gapirildi.

QIZIQARLI UCHRASHUV

215 - maktabning 6 - sinf o'quvchilari Madina Muhammadaliyeva, Umida Yo'ldoshevalar hikoyani maromiga yetkazib so'zlab berishdi. 153-maktab o'qituvchisi Mohir Omarova, 84-maktab direktori Guli Muhamedova, 274-maktab o'qituvchisi Mahmuda Valiyevalar so'z olib, adibimizni tavallud ayyomlari bilan qizg'in tabrikladilar. «Ko'hna dunyo», «Diyonat», «Er boshiga ish tushsa», «Oq qushlar, oppoq qushlar», «Adolat mezoni», «Muqaddas» kabi asarlari xususida ham jonli muloqotlar, qiziqarli savol-javoblar bo'lib o'tdi.

Adib bilan uchrashuv biz muxlislar qalbida unitilmas iz qoldirdi.

Halima JUMANIYOZOVA,
Oliy toifali o'qituvchi.



Ustozlaringiz ijodidan

BOLA TILIDAN

Mening ismim Nilufar,
Botirbekning qiziman.
Ota-onam erkasi,
Uyimiz kunduziman.

Jajji ukam Sardorbek,
Buvamning ovunchog'i.
Orom beradi menga,
Buvijonim quchog'i.

Hozir yoshim oltida,
Gul g'unchadirman o'zim.
Dillarga quvonch solar,
Shirin-shakar har so'zim.

Orzularim bir dunyoga,
Shoyad yetsam tilakka.
Kelajagim o'ylasam,
Quvonch to'lar yurakka.

A'lo xulq, a'lo o'qish-
Mening shiorim bo'lgay.
Vatan va xalqni sevish-
Nomus va orim bo'lgay.


Ro'zagul KARIMBEKOVA,
Ahmad Yassaviy nomidagi
203-o'rta maktabning
katta o'qituvchisi,
Xalq maorifi a'lochisi.



"PAQ-PAQ" LAR YO'Q BO'LSAYDI...

Mana, yangi yilning kirib kelishiga ham sanoqli kunlar qoldi. Odatda biz bu bayramni archalarni yasatib, rangli chiroqlar yoqib, mushaklar otib nishonlardik. Lekin keyingi yillarda na bir

bunday moddalarning nima keragi bor? Bayramimizni «paq-paq»larsiz ham chiroyli qilib o'tkazishimiz mumkin-ku.



Menimcha, bunday yoqimsiz «o'yinchoqlar»ni sotayotgan amaki

chiroyi, na bir zavqli joyi bo'lmagan allaqanday o'yinchoqlar paydo bo'lyapti. Aytingchi, «paq» etib ovoz chiqarib, kimnidir cho'chitib, yana kimningdir asabini buzuvchi, achinarlisi, kimlargadir ziyon yetkazadigan

va xolalarimizga nisbatan jiddiyroq chora ko'rilsa, yaxshi bo'lardi.

Feruza OBIDOVA,
Toshkent viloyati,
Yangiyo'l tumanidagi
2 - o'rta maktab
o'quvchisi.

1. Quyidagi javobning qay birida xalq ijodiyotiga mansub janr keltirilgan.

- A. G'azal
- B. Ruboiy
- C. Roman
- D. Afsona


2. Buyuk Britaniyaning hozirgi kundagi qirolichasi kim?

- A. Anna
- B. Elizabet
- C. Viktoriya
- D. Mery

3. Qanday gaplarda bitta ega va bitta kesim bo'ladi?

- A. Sodda gaplarda
- B. Ergash gaplarda
- C. Undalma gaplarda
- D. Qo'shma gaplarda

4. Fransiyaning pul birligining nomi nima?



- A. Dollar
- B. Yevro
- C. Frank
- D. So'm

ARALASH

TEST

5. O'zbekiston Respublikasi milliy bayrog'idagi qaysi rang Amir Temur davridagi bayroqning ham asosiy rangi bo'lgan?

- A. Qizil
- B. Havorang
- C. Oq
- D. Yashil

6. Odam a'zolarining nomi keltirilgan ko'rsatuvni toping?

- A. «Tayanch»
- B. «Rakurs»
- C. «Bola tilidan»
- D. «Beshbarmoq»

7. To'g'ri so'z toshni yorar, Egri so'z ... Maqolning davomini toping.

- A. Qoshni
- B. Boshni
- C. Kesakni
- D. Jonni

8. Qaysi so'z

arifmetikada ham, ona tilida ham qo'llaniladi?

- A. Ot
- B. Tenglama
- C. Son
- D. Gap

9. Vatanimiz O'zbekistonning yer maydoni necha kv.km?

- A. 447,4 ming kv.km
- B. 10,5 ming kv.km
- C. 883,4 ming kv.km
- D. 34,4 kv.km


10. Y va X harflari asosan nimaning nomini anglatadi?

- A. Noma'lum sonning
- B. Koordinata o'qlarining
- C. Burchaklarning nomini belgilashda
- D. Hech nimani anglatmaydi.


Feruz OBIDOVA, Yangiyo'l tumanidagi 2-o'rta maktabning 9- «G» sinf o'quvchisi.

TOPISHMOQLAR


Hech sayrama iltimos, chiqarib xunuk tovush, Husni jannatlarga xos yelpig'ich dumli ...




Vazifasi bo'lmas hech vaqt unga yuk, Sichqonlarni tunu-kun poylab ...



«Ulkan maxluq kemalarni suv qa'riga tortadi» Demang, siyoh purkab qochib tashvishlarim ortadi!



Xartumimni ishlataman qilib qo'l, Hayvonlarning bari menga berar yo'l!





Qanot bor-u ko'rmas xush, Uchmoqlikni ...



Daraxt bargin yer hayvon, unga tiramay narvon, Bulutga engak tirab ko'kdan boqadi ...



Cho'chitmasang gar, ishon, hech qachon chaqmas ...




«Uyqungiz buzdim biroz!» Xijolatda der

Jahongir MIRZAALIYEV.

O'QING-CHI!

Chizmadagi «A» harfidan boshlab egri yo'ylar yo'nalishi bo'yicha o'qing.

Ulardan hosil bo'lgan hikmat o'rta asr donishmand ijodkori Yusuf Xos Hojib merosiga mansub.



Foziljon ORIPOV.


BAYRAM DASTURXONIGA

Mana, yangi yil kirib kelishiga ham oz fursat qoldi. Albatta har bir inson yangi yilni o'z gacha kayfiyat bilan kutib olgisi keladi. Ayniqsa qizlarimiz onalari bilan birgalikda dasturxon ko'rki uchun yelib yuguradilar. Qadri tengdoshlar, dasturxoningiz yanada ko'rkam bo'lishini istasangiz quyidagi pishiriqni pishirib ko'ring.



"MAXROVIY" TORTI

bir piyola un solib, suyuq xamir qoramiz. Dumaloq qolipning tagiga qog'oz qo'yib, tayyorlangan xamirni quyamiz. O'rtacha olovli gaz duxofkasiga



20 daqiqaga qo'yamiz.

Ikkinchi bo'lagi ham xuddi shunday tayyorlanadi. Biroq, xamirga 3-4 qoshiq kakao solinadi.

So'ng pishgan biskvitlar sovutilib, teng ikki bo'lakka bo'linadi. Kesilgan xamir orasidan bir kosa ushoq olinadi.

1 ta saryog' meksir yordamida ko'pirtiriladi, unga 1 ta quyultirilgan sut solinib, krem tayyorlanadi.

Kesilgan xamir qatlamlarini krem bilan oq, qora rangda taxlanadi. Kosadagi ushoqlar ham tortimiz ustiga oq, qora kamalak misoli sepilib, bezatiladi.

Bunday tort oila a'zolaringizga juda ham yoqadi. Yoqimli ishtaha.

Shahlo MUTALOVA.

Bu tortimizga kerakli bo'lgan masalliq: 12 ta tuxum, 200 gr. saryog', 1 ta quyultirilgan sut, 2 piyola shakar, 2 piyola un, kakao va iste'mol sodasi.

Tortimizning tayyorlanishi: 6 ta tuxumning oqini yaxshilab ko'pirtiramiz. Unga bir piyola shakarini asta sekinlik bilan solamiz, tuxum sarig'ini ozgina iste'mol sodasi bilan aralashtirib, yuqoridagi masallig'imizga qo'shamiz. Uni yaxshilab aralashtirgach,



BAYRAMLARNING BAYRAMI

Bayramlarning bayrami - yangi yil kelayapti. Chiroyli qilib bezatilgan archalar, Qorbobo-yu Qorqizning ajoyibu g'aroyib sovg'alari, quvnoq uchrashuvlar... Bularning barini barchamiz, ayniqsa, jajji ukajonu singiljonlarimiz intizorlik bilan kutishadi.

Yangi yil yaqinlashayotgan ayni kunlarda o'tgan yilgi voqea yodimga tushib ketdi: Hamma xonadonlarda bo'lgani kabi biz ham uyimizni, archamizni, bayram dasturxonimizni chiroyli qilib bezatdik. O'zimiz ham chiroyli kiyimlarimizni kiyib, yasanib oldik.

Televizor atrofiga jamlanib, Yangi yilning kirib kelishini sabrsizlik bilan kuta boshladik. Yangi yilning kirib kelishiga atigi 15 daqiqa qolganda chiroq o'chib qolsa bo'ladimi?! Ana endi bizning holatimizni bir tasavvur qilib ko'ring-a. Kayfiyatimiz tushib, yig'lamoqdan beri bo'ldik. Soat millari 12 ga yaqinlashishiga 2 daqiqa

qolganida «yarq» etib chiroq yonib qolsa bo'ladimi? Bir xum oltin topib olgan odamdek sevinib, qarsak chalib yuboribmiz. Bu tasodifmi yoki kimningdir qaltis hazilimi, bilolmadik. O'shanda kelasi yangi yilda bunday holat takrorlanmasligini astoydil niyat qilgandik...

Aziz tengdoshlarim, barchangizni yaqinlashib kelayotgan yangi yil bayrami bilan samimiy qutlayman. Hech biringizning uyingizda chiroq o'chmasin. Labingizdan tabassum, qolingizdan sevimli «Tong yulduzi»miz arimasin!

**Samixa
MIRZAMUHAMEDOVA,
Toshkent pedagogika kolleji
1-kurs talabasi.**

«Istiqlol umidlari» qullash, o'qish
to'garagimiz mashg'uloti va ishlarida omadlar
o'tadigan xonaga tilash istagini
to'garak bildirishdi.
a'zolari birin- BIZNING TO'GARAK Yozgan
ketin kirib kelishdi. Yangi maqola-yu hikoyalari,
yil arafasi emasmi, she'rlari-yu chizgan
hammalari ko'tarinki suratlar mavzusi ham
kayfiyatda... Bir-birlarini qish haqida edi. Yana,
yangi yil bilan tabriklashar, Yangi yil oqshomida sodir
ezgu niyatlar bildirishardi. bo'lgan va xotiralarida
Shuningdek, respublikadagi muhrlanib qolgan qiziqarli
tengdoshlarini ham sevimli voqealar bilan ham
gazetalari orqali samimiy o'rtoqlashishdi.

ARCHA

Qishning izg'iriniga bardosh bergan, bahorda ham libosin o'zgartirmagan, yozda insonlarga zavq bag'ishlagan, kuzda daraxtlar to'nin tashlaganda ham yashnab turavergan Archajon!

Ona tuproq bag'ridan unib chiqqan tabiatning bizga inomidir u. Usiz yangi yil bayramlari o'tmaydi, har bir xonadonga bir olam zavqu shavq olib keladi. Qani endi odamlar ham qishin- yozin birdek turadigan Archaga o'xshasalar!



**Zamira AHROROVA,
Yunusobod tumanidagi
272 - maktabning
4 - «A» sinf
o'quvchisi.**



Valijonlar- ning maktabida yangi yil bayrami bo'layotgandi. Chiroyli kiyinib, turli niqoblar taqib olgan o'quvchilar kattakon archa yasatilgan zalga oshiqishardi. Alijon ham bayramga shoshildi. Qarasa, bolalar orasida Valijon ko'rinmasdi. U bamaylixotir sinfda pista chaqib o'tirardi.

- Nima qilib o'tiribsan? Bayram boshlanay deyapti-yu,- dedi Alijon do'stini shoshirib.

Valijon esa uning gapiga parvo ham qilmay ohista o'rmondan turib, pista po'choqlarini derazadan pastga sochi b yubordi-da, bayramga



xaltachaga solib olibdi...

Bolalar xursand bo'lib, ularni qarshi olishibdi. Negadir Qorboboning kayfiyati yo'g'roq edi.

- Bolalarim,-deya so'z boshladi u ohista.-Men sizlarga juda ko'plab sovg'a-salomlar olib keldim. Lekin sizlar ham bo'sh kelmabsizlar. Menga ham kattakon «sovg'a» tayyorlab qo'yibsizlar,-deb xaltachadagi pista po'chog'ini ko'rsatibdi. Buni ko'rgan Valijon uyatdan qizarib ketibdi.

**Dilrabo
DO'STQOBILOVA,
Toshkent shahar,
Yakkasaroy tumanidagi 118 -
maktabning
4 - «A» sinf o'quvchisi.**


QORBORO DADAJONIM ERAN

O'shanda 4 yoshda edim. Yangi yilning kirib kelishiga oz vaqt qolgandi. Oyijonim bizlarga: «Kim ko'proq she'r aytib bersa, Qorbobo sovg'a berar ekan» degandilar. Yod olgan she'rlarimizni qayta-qayta takrorlab, kechqurun bo'lishini orziqib kuta boshladik.


Kech ham kirdi. Dadajonim, men borib Qorboboni chaqirib kela qolay, deya chiqib ketdilar. Oradan hech fursat o'tmay hassasini dukullatib Qorbobo kirib keldi. Dadajonim esa yo'qlar. Hammadan ko'proq she'r aytib berganim uchun sovg'ani menga beradigan bo'ldi. Shu payt ko'zim uning paypog'iga tushib qoldi: «Oyijon, qarang Qorbobo dadamning paypog'ini kiyib olibdi» dedim men. Bu gapimni eshitib, Qorbobo ham kulib yubordi. Keyin bilsam, ikki yuzi qip-qizil Qorbobo, dadamning o'zlari ekan.



**Dilnoza PO'LATOVA,
Yunusobod tumanidagi 273 - litsey maktabning
jurnalistika guruhi o'quvchisi.**



**Akmal Ikromov tumanidagi 229-
maktabning 2- sinf o'quvchisi Muzaffar
SOBITOV chizgan suratlarini «Qish
zavqi» deb nomlabdi.**



KUMUSH QISH


Kirib keldi kumush qish,
Yalang'ochlab qilichin.
Dillar shod, tilda olqish,
Archa tayyor biz uchun.

Kutgandik-ku qish seni,
Bir yil rosa intizor.
To'yib o'ynaylik desak,
Na sovuq bor va na qor?!

Bolalar erta-yu kech,
Qorni orzu qilishar.
Usiz o'ynab bo'lmas hech,
Buni yaxshi bilishar.

Yog'sa edi oppoq qor,
Borliq bo'lsa oq kumush.
Zamin ham tin olardi,
Osmon misoli oq qush...

**Mahmudjon AZIMOV,
Shayxontohur tumanidagi
169 - maktabning
5 - sinf o'quvchisi.**



**O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining
gazetasi**

**Muassislar:
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
DAVLAT MATBUOT
QO'MITASI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR
IJTIMOIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI**

**BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Kamil YUSUPOV,
Mukarrama
MURODOVA,
Sunnatilla QO'ZIYEV,
Ergashvoy SARIQOV.**

**Noshir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.**

**Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 58.519
nuxxada ofset usulida
bosildi.
Korxonalar manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.
Buyurtma № Г-3192
Gazetani
Muhabbat
MAXSUDOVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Muharrama
PIRMATOVA**

**Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.**

**Tel: 144-62-34.
144-63-08**